

## AMALIY TILSHUNOSLIKNING DOLZARB MUAMMOLARI: TIL O`QITISHDA INNOVATSION METODIKA VA TEXNOLOGIYALAR INTEGRATSIYASI

**Abdulxakova Sabrina Sarvar qizi**

*O`zDJTU, I bosqich talabasi*

[sabrinaabdulxakova489@gmail.com](mailto:sabrinaabdulxakova489@gmail.com)

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada amaliy tilshunoslikning tarixi bosqichlari-shakllanish, rivojlanish davrlari, bugungi kundagi dolzarb masalalari va boshqa sohalar bilan bog`langan holda yechimlari ko`riladi. Xususan, tillarni o`qitish, o`rganish va tarjima, madaniyatlar aro muloqot kabi sohalarda amaliy tilshunoslikning ahmiyati, globallashtirish, inklyuzivlik va madaniy xilma-xillikning tilga bevosita ta`siri hamda fanlar bilan bo`lgan integratsiyasi va uning samarasi ochib berilgan.*

**Kalit so`zlar.** *Amaliy tilshunoslik, til siyosati va rejalashtirish, sotsiolingvistika, psixolingvistika, sun`iy intellekt(AI), globallashtirish, fanlar aro yondashuv, texnologiya.*

**Annotation.** *This article examines the historical stages of applied linguistics-its formation, development periods, current pressing issues, and solutions in connection with other fields. In particular, it highlights the significance of applied linguistics in areas such as language teaching, learning, translation, and intercultural communication. The article also explores the direct impact of globalization, inclusivity, and cultural diversity on language, as well as the integration of applied linguistics with other disciplines and its effectiveness.*

**Keywords.** *Applied linguistics, language policy and planning, sociolinguistics, psycholinguistics, artificial intelligence (AI), globalization, interdisciplinary approach, technology.*

Amaliy tilshunoslik bu nazariy tilshunoslikda o`rganilgan bilimlarni amaliyotda qo`llash va bog`liq muammo, masalalarni xal qilishga qaratilgan soha. Til o`qitish, o`rganish, tarjima va madaniyatlar aro muloqot kabi sohalarda amaliy tilshunoslikning o`rni beqiyos. Amaliy tilshunoslik til o`qitish metodikasi, tarjima nazariyasi va amaliyoti, nutq texnologiyalari, psixolingvistika, sotsiolingvistika, eksperimental fonetika, til siyosati va rejalashtirish, logopediya kabi yo`nalishlarni o`z ichiga oladi. Bu kabi sohalarda rivojlanishida amaliy tilshunoslik ko`prik misoli xizmat qiladi. Biroq, shunga qaramay bu soha ham qiyinchiliklar va muammolar bilan kurashadi. Ushbu inshoda tilshunoslikda uchraydigan muammolar ko`rib chiqiladi, nazariya va amaliyot o`rtasidagi tafovut, dominat bo`lib borayotgan tillarning boshqa tillarga ta`siri tanqidiy muhokama qilinadi.

Metodologiyasi. Avvalo tilshunoslik tarixiga qaraydiga bo'lsak, birinchi qo'yiladigan savol-nima uchun tilshunoslik yaratildi, dastlab asosiy vazifasi nima edi? Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, tilshunoslikning dastlabki asoslari qadimgi yunon, rim faylasuflari- Aristotel, Platon, Varro asarlarida uchraydi. Hind manbalarida dastlab tilshunoslik qadimgi vedalarni to'g'ri talaffuz qilish va uni kelajak avlodga xatolarsiz qoldirish maqsadida ishlab chiqilgan. Tilshunoslik ilmiy fan sifatida shakllana boshladi, tilning tarixiy rivojlanishi turli tillar orasidagi tipologik va geneologik bog'lanishlar o'rganildi. Misol uchun Franz Bopp va August Schleicher. Keyinchalik Ferdinand de Sossyur (Course in general Linguistics, 1916) tilshunoslikni mustaqil fan sifatida shakllantirdi. Amaliy tilshunoslikka to'xtaladigan bo'lsak, tilshunoslikdan asosiy farqi bu -nazariyani amaliyotga tatbiq qilishdir. Misol uchun grammatikani nazariy o'rganilsa, uning nutqqa ko'chishi bu-amaliyot. Amaliy tilshunoslikning rivojlanishining dastlabki davrlari 19- asr oxiri va 20- asr boshiga to'g'ri keladi. Dastlab til sohasi va uni o'rganishda faqatgina nazariyaga tayanilgan, amaliyot cheklab qo'yilgan edi. Fransuz maktablaridagi "grammatika +talaffuz+lug'at metodikasi" bunga yaqqol misoldir. 20-asr o'rtalariga kelib esa, amaliy lingvistika mustaqil fan sifatida rivojlana boshladi. Misol uchun Communicative Language Teaching (1960–1970)- ingliz tilini xorijda o'qitish metodikasi rivojlandi. 20- asr oxiri va 21-asr boshida fanlar aro yondashuv - psixolingvistika, sotsiollingvistika, korpus lingvistikasi rivojlana boshlandi.

Amaliy tilshunoslikning dolzarb muammolaridan biri- til o'rganishda yuzaga kelayotgan turli xil muammolar: faqatgina grammatikaga asoslangan o'quv mashg'ulotlari, tilni (so'zlarni, iborlarni) mohiyatiga yetmasdan foydalanish, o'rganuvchilar o'rtasida o'z ona tilisi bilan chalkashtirib yuborishlar. Bularning hammasi tilni amaliyotga tatbiq qilish va ommalishtirishda asosiy to'siq bo'lib kelmoqda. Bunga yechim sifatida shuni aytish mumkinki, avvalo, o'rganuvchining qobiliyatini bilib olish asosiy faktor bo'lib ro'l o'ynaydi, chunki ba'zi talabalar grammatikani yaxshi o'zlashtirsalar, ba'zilar to'g'ri talaffuzi bilan ajralib turadi. Keyingi yechim sifatida zamonaviy texnologiyalarni dars jarayonlarida umumlashtirish-nafaqat xato va kamchiliklarni payqaladi, balki ularni chuqur tahlil qilishga ham olib keladi. Keyingi asosiy masalalardan biri bu -globallashuvdir. Globallashuv til bilan bog'liq bo'lgan bir qancha muammolarni keltirib chiqaradi. Turli mamlakat vakillarining aloqasi va kelishuvi uchun, eng muhim vosita til hisoblanadi, bu jarayon o'z navbatida, o'qitish metodikasini rivojlantirishni, yangi metodiklarni (CLT – communicative language teaching) talab qiladi. Bunda kommunikativ yondashuv (CLT – communicative language teaching) qo'llash samaralidir. Shuningdek globallashuv rivojlangan sari insonlar o'rtasida faqatgina ma'lum bir tildan foydalanish kuchayadi, bu esa ona tiliga ehtiyojni kamaytiradi, bevosita tillarning yo'qolib ketishiga olib keladi. Ona tilini saqlashga e'tibor qaratish bunda muhim ro'l o'ynaydi, bu metodni maktablardan boshlab joriy qilish eng to'g'ri yo'ldir.

Amali tilshunoslik faqatgina o'z doirasidagi ma'lum bir tushunchlar bilan cheklanibgina qolmay, balki boshqa fanlar bilan yondashuvi orqali ham muammolar o'z yechimini topmoqda va bu sohani kundan-kunga kengayishiga olib kelmoqda.

Neurologiya, antropologiya kabi fanlar bunga yaqqol misoldir. Negaki, tilni boshqarish va o'rganish kabi miyadagi mexanizmlar orqali yangi metodikalr yaratilishi mumkin, antropologiyada esa, tillarning kelib chiqishi, turli xil sheva va lahjalarning ishlatilish o'rinlari va foydalanishdagi qonun-qoidalar, til va madaniyat o'rtasidagi bo'g'liqlikni o'rganilib, har ikki sohaning ham rivojlanishiga olib keladi

Yana bir asosiy masallardan biri sun'iy intellektning til doirasiga ta'siridir, uni muqobil ravishda foydalanish va muammolarni hal qilishda yordamchi vazifasida ko'rish maqsadga muvofiqdir.

Amaliy tilshunoslikning har bir soha bilan uyg'unlikda rivojlanishi bu nafaqat muammolarni hal qilish balki, sohalarnig rivojlanishiga ham olib keladi. Texnologiya va sun'iy intellekt (AI) ning integrallashuvi esa rivojlanish uchun asosiy omillardan biridir.

Xulosa. Alan Davies aytganidek "Amaliy tilshunoslik til bilan bog'liq muammolarga amaliy yechim topishga qaratilgan fandır". Til o'rganish va o'rgatishda texnologiyalarning jadal rivoji va globallashuvning bevosita ta'siri, bu sohaning dolzarbligini oshiradi. Yuqoridagi fikrlar shuni ko'rsatadiki, amaliy tilshunoslik har doim muhim bo'lib, har bir sohadagi til muammolarni hal qiladi.

### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davies, A. (2007). An Introduction to Applied Linguistics: From Practice to Theory. Edinburgh University Press. (Siz keltirgan iqtibos uchun asosiy manba).
2. Richards, J. C., & Rodgers, T. S. (2014). Approaches and Methods in Language Teaching. Cambridge University Press. (CLT va boshqa metodikalar tahlili uchun).
3. Safarov, Sh. (2008). Pragmalingvistika. Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi.
4. Azizov, A. (1996). Tilshunoslikka kirish. Toshkent: Sharq.
5. Yusupov, O. (2007). Chog'ishtirma tilshunoslik nazariyasi va amaliyoti. Toshkent.